IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

XX ASRNING 20-YILLARIDAN BUGUNGI KUNGA QADAR QASHQADARYO MAORIFINING O`ZIGA XOS JIHATLARI

Samadova Nargiza Muxiddinovna
Tarix fanlari nomzodi, Qarshi innavatsion ta`lim universiteti

Annotatsiya
Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida maorif sohasining rivojlanish tendensiyalari ko`rib chiqiladi. Maqolada o`tgan asrning 20-yillaridan bugungi kungacha bo`lgan davr qamrab olinadi.
Kalit so‘zlar
Maorif, ta`lim, o`qitish, maktab, oliygoh, metod.

KIRISH

O‘zbekistonda bugungi kunda yangicha yondashuvlar asosida islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida ta’lim tizimida yangi davr boshlandi. Bundan tashqari ushbu islohotlar O‘zbekiston ta’lim sohasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda sog‘lom, barkamol, bilimli va yuksak ma’naviy–ahloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbekiston hududi azaldan ilm-ma’rifatli, ziyoli insonlar makoni bo‘lib kelgan. Qadim-qadim davrlardan ushbu zaminda dunyoga dong‘i ketgan madrasa, maktab va dorilfununlar bo‘lgan. Buyuk mutafakkir olimlar, fozilu-fuzalolarimiz jahon fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shib kelganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining har qaysi davrida o‘ziga xos tarzda yaratiladi. Har bir davr madaniyati, ilm- fani, ta’lim tizimi haqida fikr yuritilganda, eng avvalo o‘sha jamiyatda ilm-fan, adabiyot, san’at, madaniyat va ta’lim tizimiga munosabatdan kelib chiqib tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, har bir tarixiy davrda ilm-fan, madaniyat va ta’lim tizimiga munosabat har xil bo‘lgan. Binobarin, biz yaqin o‘tmishning, ya’ni sovet hukumati hukmronligi davri XX asrning 20-30 yillariga nazar tashlasak, bu davr o‘zining murakkabligi va ziddiyatligi bilan ajralib turadi. Mazkur yillarda kommunistik mafkura asosida kompartiya o‘zining siyosatini hayotga tadbiq qilish uchun “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” g‘oyani targ‘ib qiluvchi “madaniy inqilob” tadbirlarini ishlab chiqdi va uni shoshilinch tarzda amalga oshirishga kirishdi. Jamiyat ijtimoiy hayotning bir bo‘lagi bo‘lgan ta’lim tizimida ham mafkuraviy ta’sirini o‘tkazib bordi. Sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki yillardanoq madaniyat, ta’lim sohasida hukmron davlat mafkurasiga mos o‘zgarishlarni amalga oshirishga kirishildi. Sovet tuzumi tomonidan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi avvalo, mahalliy aholi orasidan chiqqan ta’lim tizimi xodimlari, madaniyat arboblari, milliy ma’rifatparvarlarning say’i harakatlari natijasida XX asr 20-yillarining birinchi yarmidan boshlab O‘zbekiston hududida madaniy hayot kommmunistik mafkuraga xos ko‘rinishda qaror topa boshladi.

Sovetlar tomonidan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida mahalliy aholi orasidan ta’lim xodimlarining shakllanishi, madaniyat, ma’rifat, ta’lim- tarbiyaningkompartiya mafkurasiga xos yangi ko‘rinishda qaror topib borishi natijasida sovet maktablarining soni ortib bordi. 1940–1941 o‘quv yilida Samarkand viloyatida 835 ta, Surxondaryoda 303 ta, Qashqadaryo viloyatida 470 ta maktablar faoliyat yuritgan [1].

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Sovet maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlar kommunistik mafkura nuqtai nazaridan talqin etilgan. O‘quvchilarning hududiy-an’anaviy hamda milliy xususiyatlariga, ularning milliy ma’naviyatini shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratilmagan.

XX asrning 80-yillari boshlaridan Qashqadaryo viloyatida aholi ijtimoiy hayotiga taaluqli bo`lgan sohalar: ta`lim, madaniyat, sog`liqni saqlashda muhim o`zgarishlar sodir bo`la boshladiki, bu o`zgarishlar Qashqadaryo aholisi ijtimoiy ta`minotini yuksalishiga xizmat qildi.

1979-1980 yillarda Qashqadaryo viloyatida 47 ta yangi maktab qurib ishga tushirildi,13 ta professional texnika o`quv yurti,Muborak industrial texnikumi ochildi [4].

1982-yil sentabrda Qashqadaryoda maktablar soni 720 taga yetib,ularda 335 ming o`quvchiga ta`lim berildi.46 ta o`rta-maxsus o`quv yurtlarida 23 ming yoshlar o`qidi.Qashqadaryoda 290 ta klub va madaniyat uyi,530 ta ommaviy kutubxona xalqqa xizmat qildi.Qashqadaryodagi 814 ta davolash muassasalarida 32 yo`nalish bo`yicha tibiy yordam ko`rsatildi.Qashqadaryoning tibbiyot maskanlarida har 10 ming aholiga 106 ta koyka to`g`ri keldi. Aholini muhofaza qilishga 12 ming vrach va o`rta tibbiyot xodimi xizmat qildi.

1982-yilda Qashqadaryoda viloyatidagi o`rinlar soni 390 tagako`paydi.O`quvning barcha turlarida 383 ming 4 o`quvchiga ta`lim berildi.Shundan 352,1 mingi umumiy ta`lim maktablarida, 11.4 mingi professionalo`quv yurtlarida, 14.2 mingi o`rta-maxsus maktablarida shug`ullandi.Vrachlar soni 303 kishiga ko`payib,2937 taga yetdi. Ishchi va xizmatchilarning pul bilan oladigan o`rtacha ish haqi 171.1 so`mni tashkil qildi. 1982-yilda Qashqadaryoda 11 ta yodgorlik ta`mirlandi.

1987-yilda Qashqadaryoda 420,6 ming kishi ta`limning har xil turlariga jalb etildi. 37,7 ming yigit-qiz o`rta ma`lumot oldi. Maktabgacha tarbiya doimiy muassasalarida qariyb 60 ming bola tarbiyalangan.

Pul bilan ta`minlashning barcha manbalari hisobidan 18,2 ming o`quvchi o`rinli umumiy ta`lim maktablari 960 o`quvchi o`rinlari hunar-texnika bilim yurtlari, 3,7 ming o`rinli maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari 3,3 ming o`rinli klublar va madaniyat uylari foydalanishga topshirilgan.

1987-yilda Davlat kapital mablag`lari hisobidan umumiy ta`lim maktablarinifoydalanishga topshirish 1986-yilga nisbatan 2,9 foiz, hunar-texnika bilim yurtlarini foydalanishga topshirish 4 baravar va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini foydalanishga topshirish 3,6foizga ko`paygan.

2022/2023- O‘quv yili boshida jami umum ta’lim muassasalari soni 1155 tani tashkil etib, ulardan 803 tasi (69,5 %) qishloq joylarida, 352 tasi (30,5 %) shaharlardajoylashgan. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan umum ta’lim muassasalari soni 14 taga oshdi.

1-jadval. Umumta’lim muassasalarining sinf guruhlari bo‘yicha o‘quvchilari soni

	Jami o‘quvchilar	shu jumladan:			
		Sinf guruhlari bo‘yicha			Boshqa maktablar o‘quvchilari
		1-4 sinflar	5-9 sinflar	10-11sinflar	
Qashqadaryo viloyati	**639649**	**254550**	**287723**	**96161**	**1215**
shu jumladan:					
shaharlar:					

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Qarshi sh.	60104	22884	27165	9108	947
Shahrisabz sh.	23786	9593	10646	3547	-
tumanlar:					
G‘uzor	40480	15123	18669	6683	5
Dehqonobod	29939	12120	13124	4695	-
Qamashi	51250	19903	23287	8060	-
Qarshi	44710	17760	20329	6621	-
Koson	55418	22285	24664	8469	-
Kasbi	35640	14019	16573	5048	-
Kitob	49230	19843	21659	7726	2
Mirishkor	21701	8571	10014	3116	-
Muborak	16950	7002	7649	2293	6
Nishon	30548	12053	13963	4526	6
Chiroqchi	90875	35884	40719	14024	248
Shahrisabz	40622	17649	17685	5287	1
Yakkabog‘	48396	19861	21577	6958	-

2022/2023- o‘quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta’lim muassasalaridan bir smenada ta’lim yuritilayotganlari 282 ta (24,5 %), ikki smenada 867 ta (75,4 %), uch smenda 1 ta (0,1 %) ni tashkil etadi. Ta’kidlanganidek bir smenada 413,0 ming nafar (64,7 %), ikki smenada 225,3 ming nafar o‘quvchi (35,3 %), uch smenda 56 nafar o‘quvchi tahsil olmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o`rnida ta`kidlash lozimki, 1924-yildan to bugungi kunga qadar Qashqadaryoda ta`lim muhiti bir daqiqa ham to`xtab qolgani yo`q. Urush yillari, mustaqillikning ilk o`tish yillarida ham zabardast o`qituvchilar tomonidan hamda hukumatning oqilona harakatlari bilan ta`lim, maorif faqat oldinga harakat qildi. Bu kabi urinishlarning samarasi o`laroq, Qashqadaryodan ko`plab yetuk olim-fuzalolar, mutaxassis va bilimdonlar yetishib chiqayotgani tahsinga sazovor.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abduraxmanova J.N. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi qatag‘onlik siyosati (Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida. 1925–1941 yy). T.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2002.23-bet.
2. Abduraxmanova J.N. Sovet hokimiyatining O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi qatag‘onlik siyosati (Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida. 1925– 1941 yy). T.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2002. 30-bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. Fond – 1619, ro‘yxat № 11, yig‘ma jild 196, 113 – varaq.
4. QVDAning G‘uzor filiali. 316-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 216-ish 139-varaq.